

MUHANDISLIK TA'LIMIDA INNOVATSIYALARNI QO'LLASH AHAMIYATI

I.S.Ruziyev – professor

Urganch davlat universiteti

Tayanch so'zlar: pedagogik innovatsiya, bilim, ta'lim, texnologiya, kasb, mahorat, shaxs, refleksiya, ta'lim metodi.

Ключевые слова: педагогическая инновация, знание, образование, технология, профессия, умение, личность, рефлексия, образовательный метод.

Key words: pedagogical innovation, knowledge, education, technology, profession, skill, personality, reflection, educational method.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar borasida hal qilinmagan ilmiy muammolar mavjudligini e'tirof etish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan oliy ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash va ijtimoiy buyurtma asosida malakali kadrlarni tayyorlashda talabalarni mustaqil harakat qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, namoyon qilish va boshqarish, nostandart fikrlash va maqbul qaror qabul qilish, doimiy ravishda yangi g'oya, texnologiyalarni izlash, topish hamda tajriba-sinovlar o'tkazish, axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish va elektron ta'lim resurslarini yaratishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va innovatsion faoliyatga tayyorlash amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Pedagogik innovatsiya”ning ta'rifida doimo “yangilik”, “yangi” va h.k. atamasi doim ishtirok etishini sezib olish qiyin emas. S.I.Ojegovning rus tili lug'atida mazkur atamaga quyidagicha talqin beriladi: “Pedagogik innovatsiya-bu birinchi marta yaratilgan, yaqin o'tmishga yoki hozirgi vaqtga tegishli, yetarlicha tanish bo'lmagan yoki kam tanilgan g'oya yoki loyihadir” [1].

Ilmiy tadqiqotlarda “Pedagogik innovatsiyalar” ko'pincha ta'limni yangilash, isloh qilish jarayoni sifatida, material (g'oya, harakat, shakl, vosita, kontseptsiya, dastur) sifatida, ilg'or ta'lim metodarini aniqlash va zamonaviy sharoitlarda qo'llanish uchun eng ma'qul va eng moslashganni tanlab olish tariqasida [2,4,5] ta'riflanadi.

Ba'zi mualliflar tomonidan “Pedagogik innovatsiyalar” o'quv tarbiyaviy jarayoniga yangilikni kiritish va sifatini yaxshilash hamda o'zgartirish tarzida ham ishlab chiqiladi [6].

Shuningdek, ko'pchilik mualliflar tomonidan “yangiliklar” biror jihati bilan mutlaqo yangi bo'lishi kerakligi, zamonaviy va ilg'or bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi [7].

S.M.Andreeva pedagogik innovatsiyalar muammosiga nisbatan pedagogik innovatsiyaga hodisa sifatida bir qator ma'nolar kiritilishini ta'kidlagan [8].

Pedagogik innovatsiya deganda, o'quv muassasasida hamkorlik g'oyalari asosida psixologik muhitning o'zgarishi tushuniladi; original pedagogik tizimlar, texnologiyalarni joriy qilish va tarqatish; ziddiyatlarni hal qilish (innovatsion dasturlarni o'quv rejalari va dasturlar bilan birga qo'shib olib borish, pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishning hamda malakasini oshirishning uzluksiz jarayoni, yangi o'quv qo'llanmalarining, boshqarish sxemalarining zarurligi); innovatsiyalarning tarqalishi maktabning maqomini o'zgartiradi, bunda u eksperimental, innovatsiya faoliyatida muntazam ishtirok etuvchi bo'lib qoladi; innovatsiyalar sharoitida pedagogik faoliyat barqaror ijodiy xususiyatga ega bo'ladi, innovatsiyalar doimiy amalda bo'lgan izlovchi va eksperimental ta'lim tizimlari tartibida ishlashga o'tadi [8].

Ko'pchilik olim-pedagoglar ishlarida pedagogik innovatsiyalar quyidagicha guruhlanadi: innovatsiyalar obyekti bo'yicha ta'lim mazmunida innovatsiyalarga; ta'lim va tarbiyalashning texnologiyasida innovatsiyalarga; ta'lim muassasalarini boshqarish tizimida innovatsiyalarga; ta'lim muhitida innovatsiyalarga bo'linadi. Kelib chiqish xususiyatiga ko'ra esa tashqi va ichki innovatsiyalarga ajratiladi. Shu bilan birga tashqi innovatsiyalar yuqori tashkilotning buyrug'i yoki yo'riqnomasi bo'yicha qabul qilinadi va amalda joriy qilinadi. Pedagogik tizimga ichki innovatsiyalarni joriy qilish amaliyotga nisbatan pedagogik refleksiyalar natijasida yuz beradi.

“Pedagogik innovatsiya”ning faqatgina jarayonli xususiyatini ko'rsatish yetarli emas, balki doimiy ravishda uning natijadorligini ham nazarda tutish kerak. Ya'ni, yangiliklarni “yaratish, o'zlashtirish, qo'llanish” ijobiy (avvalgidan yaxshiroq) natija berishi kerak. Shuning uchun mazkur ta'rifni yana bir so'z bilan to'ldirish mumkin deb hisoblaymiz. Pedagogik innovatsiya-bu pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish, qo'llanish jarayoni va natijasidir. Bu yerda “yangilik” sifatida ham vosita, ham metod, ham metodika, ham texnologiya, ham dastur va h.k.lar ishtirok etishi mumkin.

Pedagogik innovatsiyalar deganda, biz vosita, metod, usul, texnologiya va xokazo emas, balki ularni yaratish, o'zlashtirish va amalda qo'llash, baholashni hamda boshqarishni tushunamiz.

“Yangiliklarni kiritish”ni yaratish, o'zlashtirish, baholash va qo'llash doim ijodiy faoliyat bilan birga

qo'yilganligi uchun "innovatsiya" va "ijod" tushunchalarining nisbatini ko'rib chiqish zaruriyati mavjud. Bu masalani hal etishga yondashuvlar D.V.C.Hernilevskiy [9], D.V.Bogoyavlenskaya [10] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida aks ettirilgan.

Pedagogning innovatsiyalardan samarali foydalanish asosan pedagogning kasbiy tayyorgarligiga hamda uning shaxsiy tajribasiga bog'liq. Pedagogda shaxsiy tayyorgarligining yetarli emasligi, yangiliklar haqida tasavvurlarining va shaxsiy imkoniyatlarining torligi o'quv muammosini anglab yetilmasdan qolishda namoyon bo'lishi mumkin.

Ta'limda innovatsiyalarning vujudga kelishi zarurati quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ta'limni qo'llab-quvvatlash va maqsadlarida (o'quv rejalarini, dasturlarni o'zgartirish, yangi o'quv fanlarini kiritish integrativ kurslarni yaratish va boshqalar);

- ta'lim texnologiyalarida (texnologik yangiliklar);
- o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda;
- o'quv muassasasining boshqaruv tizimida;
- umuman pedagogik jamoaning, xususan o'qituvchilarning ijodiy yo'naltirilganligi;

- pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sirlashuvi tuzilmasida;

- talabalarning darsdan tashqari mustaqil faoliyatini tashkil etish;

- ta'lim muassasasining mikrosotsium bilan o'zaro munosabatlarida;

- oliy ta'lim muassasalarining keng tarmoqli rivojlanishida;

- talabalarning tadqiqotchilik faoliyatlarining qaror topishida va h.k.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni kiritish, pedagogik yangiliklarni yaratish, baholash va o'zlashtirish jarayonlarni boshqarish masalalarini ijobiy hal qilishda innovatsion faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi.

N.I.Lapin, L.Ya.Kosals, E.Rodgers va boshqa tadqiqotchilarning izidan juda ko'p olimlar innovatsiyaning o'ziga xos mazmunini o'zgarishlar tashkil etadi, innovatsion faoliyatning bosh vazifasi esa, ijobiy o'zgartirish vazifasi hisoblanadi degan xulosaga kelganlar [11].

Tadqiqotchi M.Jumaniyozova, "Innovatsion faoliyat-bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yoring mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat", deb ta'riflagan [12]. M.Jumaniyozovaning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyat quyidagi belgilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;

- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;

- hamkasblar bilan hamkorlik;

- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;

- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;

- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Yuqorida olib borilgan tahlillarni umumlashtiradigan bo'lsak, innovatsion faoliyat - bu yangi bilimlarni egallashga va qo'llanishga qaratilgan faoliyatdir.

Shunday qilib, pedagogik innovatsiyaning muvaffaqiyati pedagogik faoliyatning an'anaviy qaror topgan yondashuvlarga, tamoyillari, metodlari va shakllarining asoslanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tadbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi, ular quyidagilar:

- muammoni tahlil asosida aniqlash;


- mo'ljallangan ta'lim tizimini loyihalash;

- o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish;

- o'zgarishlarni amalga oshirish.

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Yuqoridagi tahlillardan, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni kiritish, pedagogik yangiliklarni yaratish, amalga oshirishning amaliy zarurati asosida bosqichlari belgilab olinadi (1-rasm).



1-rasm. Ta'limda innovatsiyalarni qo'llashning zarurati va bosqichlari.

Innovatsion yondoshuv moslashuvchan tarzda o'z tuzilmalari uchun boshqaruv tizimini yaratish, o'zaro ishonchni ta'minlash uchun haqiqiy rivojlanishni oldindan taxmin qilish imkonini beradi. Ta'lim tizimining tarkibiy qismlarida sifat o'zgarishlari bo'lishi, mazmunli faoliyat, umumiy va maxsus boshqaruv funktsiyalari, dastur, texnologiya va usullari, ishtirokchilarning kadrlar salohiyatini rivojlantirishi bilan bog'liq jarayonlar klaster muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ta'lim tizimiga nisbatan innovatsion yondashuv haqiqiy rivojlanish jarayonining mantig'iga mos kelsa, ta'lim sifati

samaradorligi ortadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarining boshqaruv tuzilmasida mavjud muammolarga nisbatan munosib innovatsion yondashuvlar joriy qilinsa, mavjud vaziyatni oldindan baholay olish, hodisalarning rivojlanishini to'g'ri taxmin qilish, o'z vaqtida choralar ko'rish va tashkiliy boshqaruv tuzilmasiga tuzatishlar kiritish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Zero, innovatsion yondoshuv jarayonlari yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, moddiy, moliyaviy, texnologik, informatsion, uslubiy va kadrlar sohasidagi barcha resurslar jalb qilinganligi bilan ham eng kuchli mexanizm sanaladi.

Adabiyotlar

1. Ожегов С.И. Словарь русского языка. / С.И. Ожегов; под общ. ред. проф. Л.И.Скворцова. 24-е изд., испр. -М.: ОНИКС 21 век: Мир и образование, 2004.
2. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: методология, теория, практика. -М.: УНЦДО, 2005. – С.222.
3. Волон В.Т. Методология исследования педагогических инноваций. -Самара: Изд-во СНЦ РАН, 2004. -С.225.
4. Загвязинский В.И., Строкова Т.А. Педагогическая инноватика: проблемы стратегии и тактики: монография. -Тюмень: Издательство Тюменского государственного университета. 2011. –С.176.
5. Юсуфбекова Н.Р. Общие основы педагогической инноватики. - М.: 1991.
6. Карпова Г.Ф. Инновации, интеллект, образование. -М.: «Новая школа», 1998. –С. 196.
7. Кларин М.Н. Инновации в мировой педагогике. -Рига: «Эксперимент», 1995. –С.176.
8. Андреева С.М. Инновационная модель образовательной деятельности. Вестник БГТУ имени В.Г.Шухова. 2014, №5. –С. 238.
9. Чернилевский Д.В. Технология обучения в высшей школе: Учебное издание. / Под ред. Д.В.Чернилевского / Д.В. Чернилевский, О.К.Филатов. -М.: «Экспедитор», 1996. –С. 288.
10. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. -Ростов н/Д.: Изд-во Рост. Ун-та, 1996. –С.256.
11. Лапин Н. Целенаправленное воплощение знаний в инновациях. // Проблемы теории и практики управления. 2008. № 6. -С. 105-114.
12. Jumaniyozova M.T. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo" 2023.

REZYUME. Ushbu maqolada pedagogik olimlarning pedagogik innovatsiyalar tushunchalari, o'quv tarbiyaviy jarayonidagi qo'llanilishi va uning sifatiga ta'siri, mezonlari haqidagi fikr-mulohazalari yoritilgan. Shuningdek, ta'limda ulardan samarali qo'llash ahamiyati tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются мнения ученых-педагогов о понятиях педагогических инноваций, их использовании в образовательном процессе и их влиянии на качество. Также анализируется важность их эффективного использования в образовании.

SUMMARY. This article analyzes the opinions of academic teachers about the concepts of pedagogical innovations, their use in the educational process and their impact on quality. The importance of their effective use is also analyzed in education.

TUTLÍGÍWDÍ KORREKSIYALAWDA ARNAWLÍ USÍLLAR HÁM LOGOPEDIYALÍQ OYÍNLAR

A.J.Tajimuratov – *assistent oqitırwshı*

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: duduqlanish, korreksiya, logoped, maxsus usullar, logopedik o'yinlar, mustaqil nutq.

Ключевые слова: заикание, коррекция, логопед, специальные методы, логопедические игры, самостоятельная речь.

Key words: stuttering, correction, speech therapist, special methods, speech therapy games, independent speech.

Kirisiw. Mámleketimizdiń bir qatar nızam hám qararlarında jámiyetimizdiń bólegi bolǵan arnawlı járdemge mútaj bolǵan balalardı social qollaw olarǵa

tálim-tárbiya beriw, kásip-ónerge úyretiw, óz qábileti hám múmkinshiliklerin kórsete alıwǵa ruwhıy kámal taptırıwǵa tiykar salıwshı ilajlar sáwlelengen.